



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 23-noyabr

668-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidalariga jamoat transportidan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 10-oktabrdagi 658-son qarori ijrosi haqida”gi 562-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

Jamoat transportida aholiga sifatli va qulay xizmat ko‘rsatilishini samarali tashkil etish, jamoat transporti harakati ustuvorligini hamda yo‘llarda harakat xavfsizligini ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidalariga jamoat transportidan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 10-oktabrdagi 658-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi 562-6-0-Q/24-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 10-oktabrdagi 658-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 562-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan Yo‘l harakati qoidalariga ilovaga muvofiq yo‘nalishli transport vositalari uchun alohida ajratilgan tasmasi bor yo‘ldan yo‘nalishli jamoat transporti vositalaridan tashqari boshqa transport vositalarining harakatlanishini taqiqlashga qaratilgan qo‘shimcha kiritilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida keng tushuntirilishini ta‘minlashi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (D.Karimov) manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida keng tushuntirilishini ta‘minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**